

**Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy ko'chmlarning obyektiv va subyektiv asoslari**

*Berdiyeva Zebo Uralovna*

*filologiya fanlari bo'yicha*

*Abdukarimov Yahyo Ravshan o'g'li*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

*Annotatsiya. Maqolada metaforik obraz va uning spestifik tabiati, zamonaviy o'zbek she'riyatidagi badiiy ko'chmlarning obyektiv va subyektiv asoslari milliy she'riyatning asosiy tendenstiyalarini, ijodkor shaxsning olam va ijtimoiy borliqqa munosabati hamda unda tutgan o'rni muammo sifatida o'rganilgan.*

*Kalit so'zlar: metafora, metaforik obraz, badiiy ko'chim, istiora g'oyaviy estetik yangilanish, obyektiv va subyektiv, meditatiflik.*

Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy ko'chmlarning g'oyaviy-estetik jihatdan faollashuvining obyektiv va subyektiv asoslari mavjud bo'lib, u bevosita ijodkor yashayotgan davr, ijtimoiy-adabiy muhit, shoirning falsafiy konsepsiyasi, olamni badiiy idrok tarzi, voqelikka bo'lgan munosabati va ichki "men"i bilan bog'liq. XX asrning 70-yillaridan bugunga qadar bo'lgan o'zbek adabiyoti murakkab, qarama-qarshi ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Ijodkorga so'z erkinligi berilmagan davrlarda, o'z fikrlarini ochiq ifodalash taqiqlab qo'yilganda u o'z-o'zidan majozga murojaat qiladi. Qolaversa, voqea, kechinma, tuyg'uning ochiq bayoni kitobxonni to'liqlantirmaydi. Inson tabiatan sirli, noma'lum narsalarga va go'zallikka o'ch. Badiiy ko'chim adabiyotda ayni shu vazifani bajaradi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, she'r kelinchak bo'lsa, ko'chim uning ziynati, zero kelinchakning kelinlik malohatini uning ziynati yanada orttiradi va zavq uyg'otadi.

Rauf Parfi, Asqar Mahkam, Nodira Afoqova, Halima Ahmedova ijodini birlashtirib turuvchi nuqta, ularning ko'ngil shoiri ekanligi, o'z botiniga yuz burgan

va inson qalbini she'rga aylantira olganliklarida. Ular ijodida ko'chim darajasida qo'llanilgan metaforik obrazlar tabiatdagi mavjud barcha yaratilarning va er osti va ustidagi hamma narsalarning insonga, uning hayotiga aloqadorlikda tasvirlanishidir. Borliq va undagi mavjud voqelikning inson hayotiga ko'chirilishi lirik qahramon tabiatini, ruhiyatida kechayotgan evrilishlarni, ichki dunyosiga qarama-qarshi qutblarni, fe'l-u sajiyasiga xos fazilat va illatlarni ochib berishda asosiy badiiy tasviriy vosita hisoblanadi. Bu she'rlarda lirik qahramonning "men"iga daxldor, uning sezimlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar metafora vositasida she'r ma'nosini kuchaytirish bilan birga uning fikr qamrovini kengaytiradi. She'rning ta'sirchanligini oshiradi, voqelikning mohiyatini to'laqonli namoyon qiladi.

Shoirantomaziya metaforalardan shoir davr manzaralari va insonlar hayotini, shuningdek, tarix haqiqatlarni berishda foydalanadi. A.Mahkam ijodida bunday metaforalar tarixiy shaxslar va asar qahramonlari nomini keltirish asosida yaratilgan. "Boborahim Mashrabning onaizoriga qasida" (100-b), "Alisher Navoiyning so'nggi kunlari" (216-b), "Shukur Burhon marsiyasi" (219-b), "Mahmud Qoshg'ariyning devoni hoshiyasiga bitiklar" (227-b), "Termiz avliyolari" (436-b), "Ko'hna Urganch" (437-b). "Afrosiyob" (193-b), "Nuh to'foni yoxud..." (203-b), "Jaloliddin Rumiyning Odami" (145-b), "Bahouddin Naqshband deydi" (450-b), "Mahbub ul qulub" (Mansuri Xalloy haqida) 447-b), "Naqshband qasidasi" (474-b), "Dukchi eshon" (472-b), "Tumoringni solib qo'yningga (Mashrab haqida, 456-b), Batlon chizig'i (A. Qodiriy, Usmon Nosir, Cho'lpon haqida, 232-235-b), "Tavajjuh" dostoni (Mirza Bobur, Shayboniyxon, Alisher Navoiy haqida, 252-301-b)...

Asqar Mahkam ijodida o'tmishga, xalqning yaqin va uzoq tarixiga, millatning sharafiga burkangan davrlariga, ulug' ajdodlarga murojaati, ularga yukinishi bejiz emas. Chunki, "istioralarda xalq ruhi o'zining yana ham chuqurroq ifodasini topadi, ular irqar va qabilalarning his qilish hamda tafakkuridagi tafovutni hamma narsadan ham ko'ra to'g'riroq va haqqoniyroq tasvirlaydi<sup>1</sup>.

Ranglar metaforasidan esa shoira Halima Ahmedova nafaqat tabiat manzaralarini yaratish, balki inson ruhiy olamidagi evrilishlarni qizil (jigarrang), sariq ranglar vositasida tasvirlab, ular orqali inson umri bosqichidagi muhabbat, ayriliq, sog'inch, afsus tuyg'ulari ifodasini berishda foydalangan.

Halima Ahmedova lirikasida ranglar ( yashil , oq , pushti , sariq , moviy , qora va h.k. ), dov — daraxtlar qushlar , maysa — o'simliklar, tuproq, shabboda ramzi asarlari badiiyatining muhim xususiyatlaridan biri. Shu ma'noda yolg'iz yashil rangining mazmun qirralarini ko'zdan kechirish kifoya. Kitobning nomi ham "Yashil" deya atalishi bejiz emas. U shoira duniyoqarashi bilan bog'liq holda olam va odamni, voqelikni , jamiyat hodisalarini badiiy idrok va ifoda qilishdagi falsafiy — estetik prinsiplaridan voqif etadi . Bir so'z bilan aytganda, Haq ishqining ma'no jilolarini, ruhiy dunyo shevalarini tushuntiruvchi badiiy konsepsiyani anglatadi.

Shoira lirikasidagi yashil rang har bir she'rda yangi-yangi ma'nolarni anglatishiga ko'ra nufuzlidir . (Yam-yashil daryo , yashil nigoh, ishqday yashil, yalpizlar xayoli yam-yashil, yam-yashil nafas tafti, xayol kengliklari yam-yashil, "qachonlardir men ham yam-yashil edim, daryoga talpingan jilg'aday yashil", "Va yana kimdir aytgan edi : avval va oxirni to'ldirar yashil", "Yashil sog'inch bilan tirikman bu chog'" , "Havvoning yam-yashil tomirlarida" , "Suvlardan ajralib qolgan sog'ichni, Yupatib to'ldirdim yam-yashil hisga" va h.k.) Anglashiladiki, ezgulik, adolat zamiridagi mehr-oqibat tuyg'ularidan go'zallik balqib chiqayotir.. Inson fe'l-atvorida namoyon bo'lguvchi aynan ana shu mehr-muhabbatdan ko'ra odamiylik xususiyatlarini, shaxslik darajasini o'zaro farqlash mumkin.

*Bu lahza ko'nglimning yamoqlariga  
Oshiq etgim kelar har bir yaproqda.  
Xaël kengliklari yashar va qo'ng'ir,  
Sog'inch bog'larida mudraydi kunlar.*

Shoira oniy lahzada ruhida yuz berayotgan hislarning suratini chizadi, bu kechinma ijtimoiylikdan xoli, faqat uning o'zigagina daxldor. Ketma-ket qo'llangan metaforalar, jonlantirilgan tabiat bilan uyg'unlashib ketgan va bir butunlik kasb

etgan “men” kitobxonning sezgilarini uyg‘otib yuboradi.

“ko‘nglimning yamoqlari” – eski, yirtilgan, yo‘qotishlarga uchragan, lekin qayta va qayta tiklashga urinib ko‘rilgan, vaqt o‘zining izlarini qoldirib bo‘lgan, shularning hammasiga qarama-qarshi yashashga urinayotgan – bu ta’riflar yuqoridagi birikmaning ochqichlari. Ruhiy va moddiy ikki tashqi jihatidan bir-biriga aslo o‘xshamaydigan narsa o‘zaro o‘xshatilmoqda. Lirik qahramonning qalbi muhabbatga to‘la va ayni lahzada ham har bir yaproq bilan dillashmoqchi.

Biru Borning nigohi shunchalar sehrli, mo‘jizakorki, u qayg‘u bilan baxtni yarashtiradi; ajal ko‘zlarini qamashtiradi; lirik qahramonni o‘zidan o‘zini adashtiradi. Va yana ham muhimi, u mulki borliqqa, barru bahrlarga yashillik – hayot, tiriklik, yashnoqlik bag‘ishlayotir. Haq nigohi sirli tanish ovozga aylanadi (“...tanish bir ovoz chorlaydi: Halima qaydasan, kelgin, kela qol. Mana shu ovozga aylanar xokisor umrim” ).

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, shoira she’riyatida ijtimoiy hayotda ro‘y bergan voqea-hodisalar ko‘chim darajasidagi metaforik obrazlar orqali yanada ta’sirchan, jozibali va ishonarli tasvirlashga erishilgan.

She’riyatda badiiy ko‘chimlar mavqeyi shu darajada kuchaydiki, ularning ma’no tovlanishlarini anglab yetish, murakkab metaforik obrazlar tabiatini to‘g‘ri tushunish oddiy she’rxonga ancha qiyinlashib qoldi.

Poetik ko‘chimlarga asoslangan obrazlar yaratish hozirgi she’riyatimizda qanchalar rivojlangan bo‘lmasin, uning ildizlari realistik poeziyada o‘tgan asrning 20-yillariga borib taqaladi. Fitrat, Botu, Cho‘lpon, Hamza kabi ko‘plab shoirlar suronli yillarning dag‘dag‘asida o‘zlarini muhofaza qilish maqsadida poetik ko‘chimlarga asoslangan obrazlarga murojaat etishgan edi.

Poetik ko‘chimlarga murojaat etish realistik o‘zbek she’riyati uchun xos hodisa bo‘lib, bu tamoyil o‘tgan asrning 30-50-yillarida biroz pasaydi. Kommunistik mafkuraning zo‘ravonlik siyosati poetik ma’noni yaratib ifodalash an’anasiga qarshi turdi. Natijada ana shu yillarda poetik ko‘chimlar o‘rnini yalang‘och she’riyat egallaydi. Shunga qaramasdan, 60-yillarda she’riyatimizga kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi singari ijodkorlar poetik

ko'chimlarga asoslangan obrazlarga murojaat qila boshladilar.

Rauf Parfi she'riyatida badiiy ko'chimlar o'ta betakror va individual xarakter kasb etadi. Biroq bu badiiy ko'chim uchun tanlangan narsa bilan uning hayotiy vazifasini uzviy-mantiqiy bog'liqlikda tasvirlashga intiladi. U bir she'rida zangori osmonning uzoq chetlarida kezinayotgan bulut obraziga murojaat qiladi. Ammo bulut shunchaki aytilsa, uning poetik ko'chimga aloqasi bo'lmasligi mumkin. Uni poetik obrazga aylantirish uchun shoir bulut so'zi oldidan "yiqilgan" sifat-doshini muhim belgi sifatida keltiradi. Darhaqiqat, osmonning bir chetida ayro holda turib qolgan bulutga nisbatan "yiqilgan" so'zi nihoyatda mos keladi. Bu narsa badiiy ko'chimga asos bo'lgan narsaning tashqi alomatini tashkil etadi. Ko'chimli obrazning hayotiylikni oshirish maqsadida shoir unga ikkinchi belgi xususiyatni qo'shadi. Bu uning yig'lashidir. Haqiqatan ham osmonning bir chetida "yiqilgan" bulut o'zining g'aribligidan yig'lashi tabiiy. Ushbu holat bulutning tabiiy holati hamda vazifasini to'la ifodalaydi:

*Moviy osmon etaklarida,*

*Uxlab yotar yiqilgan bulut.*

*Tanholikda ertaklaridan,*

*Ayrilmish ul, bag'rida sukut.*

*Baxtli edi kezib falakda,*

*Axir to'yib-to'yib yig'lardi.*

*Ruhi bo'm-bo'sh, bo'shliq yurakda,*

*Oh, yiqilgan bulut uxlardi...*

Ma'lum bo'ladiki, poetik ko'chim shoir hayotidagi istalgan narsalar asosida yuzaga kelavermaydi. U mohiyat e'tibori bilan hayotiy mantiq qonuniyatlariga bo'ysunishi lozim. Boshqacha aytganda, poetik ko'chim hayotiy mantiq bilan badiiy mantiqni yaxlit birlikda bog'lovchi ko'prik hisoblanadi. Poetik ko'chimlarni bunday hayotiy asosda tanlash va ularni salmoqli g'oyaviy-badiiy vazifa yuklash ijodkordan katta mahorat talab etadi. R. Parfi bu jamiyatdan o'z zamondoshlari ichida alohida o'rin egallaydi.

Alloh odamzodni aql va til bilan jami mavjudotdan ulug' qilib sharafladi, shu

maqom, yuksaklik bois uni erda o'z xalifasi qildi, shu sharaf bois inson yerning gultoji, gavhari “durri yatimi” etdi. Har kimning ona tili esa uning muqaddas me'roji, asli, o'zligi, mohiyati o'zini namoyish qilish imkoni, komil axloqi, qalbiga nur kirgizuvchisi, uni balolardan to'sguvchisi, ruhiy quvvat manbai, ijtimoiy munosabatlarga kirguvchi, haq — huquqini talab qilguvchi aloqa vositasi. Hazrat Navoiy aytganlaridek, ona tili – so'z: Ma'dani inson guhari so'zdurur Gulshani odam samari so'zdurur. Ona tili o'z sohibining hamisha najotkori, ma'dani, gavhari, najoti, uni Allohga yaqinlashtirguvchi zikr va munojot, iltijolarini nurga aylantirib vohid etguvchi ruhiy qudrat, ilohiy hodisa. Rauf Parfi hayoti va ijodi davomida ona tilimiz sofliigi, uning ravnaqi, boyligi, davlat maqomi olishi uchun kurashgan, jonfido ijodkor. Uning adabiy merosida ona tilimizga muhabbat, fasohat, zarofat, so'zlarni ko'z gavharidek asrash, zargardek qo'llash, ma'no tovlanishlari – billurlanishini amalda isbotlashi izohsiz sharafdir. Rauf Parfi har bir she'r matni iqlimiga qarab, fikr, his-tuyg'uga monand so'z tanlaydi. Shoir ona tilimizning boy leksik, semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlaridan o'ta sinchkovlik, nuqtadonlik, zariflik bilan foydalanadi. Shoir ona tilida millat, ajdod ruhi yashashini, so'zda cheksiz qudrat, ruh borligini teran biladi. Ijodi esa – buning yorqin misoli. Hali ona tilimizda davlat maqomi berilmagan, milliy ozodlik va mustaqillik bir shirin xayol, orzu, xavotir bo'lgan 1965-yilda shoir “Ona tilim” nomli uch sonet guldastasidan iborat muhabbatnoma – hasratnoma yozgandi.

*1. Ulug' Turkistonim, oltin dalalar,  
Oftob sochqi sochar bosh uzra balqib  
U sening tilingda aytar allalar,  
Qonim, ona tilim, oh, xoqon xalqim. <sup>2</sup>*

“Ulug' Turkiston” – necha ming yillar dunyoning eng nurli go'shasi bo'lgan ona yurt, Vatan; “Oltin dalalar” – tabiiy hosildor, barakatli, nima eksa unadigan, bir bug'doy urug'i yetti yuz bo'ladigan, bug'doyzorlari tillarang tovlanadigan zamin; 365-366 kuni kamida 270 – 280 kuni quyoshli bo'ladigan, hamisha nurga to'la Ona Turkiston; Quyosh nuri shu qadar hayotbaxsh tiriklik manbaiki, turkiy til ham,

oftob tili – nuriga o‘xshab “alla” aytgandek ilohiy sinoat. Ona tili – turkiylarning, jami bani basharning tomirda oqar qoni, tiriklik, quvvat manbai, xalq, millat timsoli, yuzi.

Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy ko‘chimlarning g‘oyaviy-estetik jihatdan faollashuvining obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. O‘rta asr Sharq mumtoz she’riyati, tasavvuf adabiyoti, jadid lirikasi, sho‘ro davri she’riyati va mustaqillik davridagi ko‘ngil she’riyati istiora, majoz turli davrlarda adabiyotning asosiy tamoyiliga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu adabiyotning o‘z ichki qonuniyati, tarixiy-ijtimoiy muhit, ijodkorning individual uslubi, qolaversa, muallifning ruhiyatida kechayotgan evrilish, voqelikni qabul qilishdagi nuqtai nazari bilan bog‘liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Афоқова Н. Аросат фасли. – Бухоро, “Бухоро” нашриёти., 2004,-Б.23.
2. Афоқова Н. Бизнинг эра. Тошкент:Ижодпресс, 2010.-Б.72.
3. Аҳмедова Ҳ. Яшил. ЎзбекистонНашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.- Б.168.
4. Воҳидов Э. Изтироб. – Тошкент:Ўзбекистон, 1992. – Б.217.
5. Парфи Р. Сайланма. Тошкент:Академнашр, 2013.-Б.432.
6. Маҳкам Асқар.Ҳақ.Сайланма. Душанбе, Адиб, 1998.-Б.284.
7. Машраб шеърятидан.-Тошкент:Ўзбекистон, 1979.-Б.128.